Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316056

tashqari raqamli texnologiya-axborot texnologiya-zamonaviy pedagogik texnologiyani uyg'unlashuviga dastur ilovalarorqali darsni tashkil etish haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltirish mumkin.

Hozirda joriy etilgan va boshqa o'quv yurtlarida tashkil etilayotgan «online jurnal» dasturini, videokonfrensiyalar o'tkazishni, «videotopishmoq» ta'lim texnologiyasini va virtual stendlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shu o'rinda virtual stend tushunchasiga tushuntirish beradigan bo'lsak, virtual stend – o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, o'quvchi- talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Virtual stendlar har bir o'quvchi-talaba uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Ta'limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so'z yuritar ekanmiz, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o'zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro, chet el tajribasi ya'ni ta'limda o'z yo'nalishiga va uslubiga ega bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalarini olib kirish hozirda mamalakatimiz davlatsiyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Muslimov, Z.Raximov, X.Qodirov "Ta'lim texnologiyalari" darslik. Toshkent-2017

2. Xodjaboyev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007

3. M.F. Hakimova, N.X. Xo'jayev, D.Q. Axmedov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.– T.:TDIU nashr., 2006 y

TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA, SPORT TADBIRLARINING SHAKLLARI VA TURLARI

Zaynobiddinov Dilshodbek Qoblovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti "Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar" kafedrasi dotsenti
dilshod196510@gmail.com

Annotatsiya: *Yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar etib tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta. Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi salomatlikni mustahkamlashdan iborat bo'lib, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sog'lomlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy mashqlar va jismoniy harakatlar harakat ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga jismoniy sifatlarni yaxshilaydi.*

Kalit so'zlar: *Texnika, harakat, kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epchillik, egiluvchanlik, sog'lomlashtirish, malaka, ko'nikma.*

Published: 17.05.2024

Cite this article: Zaynobiddinov Dilshodbek Qoblovich (2024). Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport tadbirlarining shakllari va turlari. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316056

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Jismoniy tarbiya jarayonida o’qituvchilar o‘quvchilarni harakatlarga o‘rgatish va jismoniy mashqlar texnikasini egallashda ta’lim uslublari yordamida ta’lim bosqichlari vazifalarni hal etadilar. Ta’lim muassasalarida jismoniy mashklarga o‘rgatish jarayoni ta’lim tamoyillari va uslublarini to‘g’ri tashkil etilishiga bog’liq. Jismoniy tarbiyada ta’lim jarayoni o‘quvchi va talabalarni jismoniy tarbiya va sportga oid maxsus bilimlar bilan qurollantirish hamda jismoniy mashqlar va harakatlar texnikasi, malaka va ko‘nikmasini hosil qilish vazifalarini hal etadi. Jismoniy tarbiyada shuni ko‘rish mumkinki, mashqlarni ko‘p marotaba har xil talablar asosida takrorlash va mustahkamlash jismoniy mashqlar texnikasi bajarishda hech bir qiyinchilik bo‘lmasligini ta’minlaydi. Bu bilan harakat malaka va ko‘nikmalari takomillashib boradi.

Jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligining asoslari - jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlarida tayyorgarlikning har xil turlari (texnikaviy, taktik, nazariy, ruhiy-irodali, jismoniy). Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy sifatlar: kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epchillik, egiluvchanlik: yoshiga qarab tabiiy rivojlanishda o‘zgarish; Jismoniy rivojlanish sifatida asosiy vositalar va rejalar qonuniyatini ta’kidlash; Ommaviy sport va yuqori natijalar sporti, ularning maqsadi va vazifasi; Sport mashg’ulotlari va uni ayrim qismlarini to‘liq jarayondan tuzilishi; Sport mashg’ulotlari usullarining negizi; Sport tayyorgarligini rejalashtirish va tashkiliy tadbirlar; Mashq bajarish mashg’ulotlar to‘zilishining yaxlitligi asosidir.

Ertalabki badan tarbiya mashqlari - o‘quv mashg’ulotlargacha o‘tkaziladigan ertalabki gimnastika - ta’lim muassasasida har kuni darslar boshlanguncha o‘tkaziladigan jismoniy mashklardir. Mashg’ulotlargacha bo‘ladigan gimnastika asosan tarbiyaviy va sog’lomlashtirish masalalarini hal etadi. Ochiq havoda o‘tkaziladigan mashqlar o‘quvchi va talabalar organizmini chiniqtirishga ham yordam beradi. Ertalabki badan tarbiya mashg’ulotlari o‘quvchilarda tartib intizomni ham tarbiyalaydi. Bu mashg’ulotlardan so‘ng o‘quv kunini uyushgan holda boshlash amalga oshiriladi. [3]

Umumiy jismoniy tayyorgarlik va sport to‘garaklari – iloji boricha ko‘proq o‘quvchi va talabalarni, shu jumladan, jismoniy rivojlanishda bir oz oqsayotgan bolalarni ham jalb etish lozim. Sport to‘garaklarining rahbarlari muayyan sport turining mashg’ulotlarini o‘tkazish uslubiyatini, o‘quvchi va talabalar bilan olib boriladigan mashg’ulotlarning o‘ziga xosligini yaxshi bilishlari kerak. O‘quvchi va talabalarning jismoniniy rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarligini va yosh, jins xususiyatlarini hisobga olgan xolda ular maxsus sport muassasalaridagi jismoniy tayyorgarlik va sport to‘garaklariga jalb etiladi.

Sport mashg’ulotlarini to’g’ri tashkil etish va boshqarishda, sport turlari bilan shug’ullanishida organizmi rivojlanishining hamda sport natijalarini ko‘rsatishni ijobiy natijalariga erishish mumkin. Umumiy jismoniy tayyorgarlik to‘garaklari o‘quvchi va talabalarni jismoniy rivojlantirishni ta’minlab to‘garak mashg’ulotlari ish faoliyati, yil davomiga quyidagicha rejalashtirish mumkin. (4)

Kuzda - harakatli va sport o‘yinlari, yengil atletika, qishda - qishki sport turlari, gimnastika, kurash mashg’ulotlari, bahorda – kross tayyorgarligi, sport

o‘yinlari, yozda-suzish mashg’ulotlari o‘tkaziladi. “Uumumjismoniy tayyorgarlik mashg’ulotlari jismoniy tarbiya asosida tashkil etiladi. Musobaqalar va sport bayramlarida o‘quvchi va talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi nazorat qilib boriladi. To‘garaklar a’zolari 15 - 20 kishidan iborat bo‘lishi mumkin. Guruhlar yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligi bir hil darajadagi o‘quvchi va talabalardan saralanadi. To‘garak mashg’ulotlari xaftasiga bir yoki ikki marta o‘tkaziladi. Har bir mashg’ulot 60 minut atrofida bo‘lishi mumkin. Jismoniy tayyorgarlik guruhlariga guruh sardorlari tayinlanib ular murabbiylarga yordam beradilar. O‘quv yurtlarda sport turlari bo‘yicha to‘garaklar ham faoliyat ko‘rsatib, bu to‘garaklarga jismoniy tayyorgarlikka ega, shaxsiy qiziqishlari va jismoniy qobiliyatli bo’lgan o‘quvchi va talabalar jalb etiladi. Sport to‘garaklari jismoniy tarbiya dasturi asosida ish olib boradilar. Sportchi o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligi guruh mashg’ulotlari va sport musobaqalari, bayramlarda nazorat qilib turiladi. To‘garak mashg’ulotlari xaftasiga 3 - 4 marotaba tashkil etilib, 60 - 90 minut davomida o‘tkaziladi.

O‘quvchi va talabalar jismoniy tarbiya, sport tadbirlarini uyushtirish - ta’lim mussasaslari kundalik rejimida sog’lomlashtirish tadbirlari o‘tkazishda o‘quv yurt rahbarlari va jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan nazorat qilishning to‘g’ri yo‘lga qo‘yilishi katta ahamiyatga egadir.

Ta’lim mussasaslari kundalik rejimida sog’lomlashtirish mashg’ulotlar boshlanguniga qadar o‘tkaziladigan gimnastika, umumiy ta’lim va mehnat darslarida o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalari hamda o‘quvchi va talabalrning tanaffus vaqtlarida dam olishining yo‘lga qo‘yilishi kabi tadbirlar amalga oshirilmog’i lozim.

Mashg’ulotlar boshlanguniga qadar o‘tkaziladigan kundalik jismoniy tarbiyaga va sportga doir o‘tkaziladigan tadbirlar muhim shakllaridan biridir. U o‘quvchi va talabalarning jismoniy jixatdan to‘g’ri o‘sishlariga yordam beradi, ularning sog’lig’ini mustaxkamlaydi.

Mashqlar kompleksi muayyan kunlar o‘tgandan keyin albatta boshqa bir mashklar kompleksi bilan almashtirilmog’i darkor. Chunki doimo bir hil mashqlarni bajaraverish o‘quvchilarni zeriktirib qo‘yadi va ularda mashg’ulotlar boshlanguniga qadar o‘tkaziladigan gimnastikaga bo‘lgan qiziqish yo‘qoladi. Mashg’ulotlar boshlanguniga qadar o‘tkaziladigan gimnastika 10-15 daqiqa davom etadi. Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, gigienik gimnastika bilan har kuni muntazam suratda shug’ullanuvchi o‘quvchi va talabalarning umumiy jismoniy o‘sishi yaxshilanadi: muskul sistemasi mustaxkamlanadi, o‘pkaning hayotiy sig’imi ortadi, qon aylanish va nafas olish yaxshilanadi, qaddi-qomat kelishib boradi, organizm shamollamaydigan bo‘lib chiniqib boradi.

Har bir o‘quv yilida kamida 3-4 marta sport bayrami o‘tkazish har bir ta’lim muassasasi an’anasiga aylanib qolmog’i lozim. O‘quvchi va talabalarni jismoniy tarbiyalashda o‘quv kuni tartibidagi jismoniy madaniyat va sport tadbirlari muhim rol o‘ynaydi. Ulardan asosiylari quyidagilar: ertalabki badan tarbiya, dars vaqtida o‘quvchi va talabalarni toliqishdan saqlash uchun o‘tkaziladigan jismoniy madaniyat daqiqalari va tanaffuslarni harakatli o‘yinlar bilan uyushgan holda o‘tkazish. Yuqoridagi tadbirlarning barchasi o‘quv kuni davomida jismoniy tarbiyaning muayyan vazifalarini xal etishga, o‘quvchi va talabalarni o‘quv mashg’ulotlari

jarayonidagi aqliy faoliyatiga tayyorlashga qaratilgandir. [5]

Ta’lim muassasasida jismoniy tarbiyaning asosiy shakli jismoniy tarbiya darslaridir. Darslarni to‘g’ri o‘tkazish jismoniy rivojlanishning muvaffaqiyatini va o‘quvchi talabalarning malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish topshiriqlarini bajarishlarini ta’minlaydi. Darslarda, o‘quvchi va talabalarni mashg’ulot paytigacha o‘tkaziladigan, tanaffus va jismoniy tarbiya daqiqalarida foydalaniladigan mashg’ulotlar materiali bilan taninshtiriladi. Shunday qilib, darslar o‘quv kuni tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlarining ham asosi hisoblanadi. Jismoniy madaniyat darslari o‘z mazmuni va tashkil etilishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Ular yopiq zallarda, usti o‘chiq maydonchalarda o‘tkaziladi, bunday joylarda o‘quvchi va talabalar harakati kamroq cheklangan bo‘ladi, bu esa o‘quvchi va talabalarni uyushtirish va dars o‘tkazishda aloxida sharoit yaratadi. Jismoniy tarbiya darslari amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, jismoniy mashqlar ichida xayotiy zarur bo‘lgan harakat malaka va ko‘nikmalari asosiy qismni tashkil etadi. Bunday harakatlardan o‘qish, mehnat va dam olish sharoitlarida foydalanish ko‘rsatmalarini dars davomida o‘rganadilar.

O‘quvchi va talabalarni jismoniy tarbiyalash bo‘yicha ish shakllari quyidagilar:
Jismoniy tarbiya darslari;
O‘quv kuni tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlari:
Ertalabki badan tarbiya, darsda jismoniy madaniyat daqiqalari, tanaffusdagi harakatli o‘yinlar;

Jismoniy tayyorgarlik va sport to‘garaklari, mashg’ulotlari, sport musobaqalari va bayramlari, sayyohlik yurishlari va turizm, oilada va yashash joylarida jismoniy tarbiya tadbirlari bilan shug’ullanishlar kiradi.

Maqsadi. Ta’lim muassasalarida jismoniy harakat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishning bosqichlari va ularga qo‘yiladigan talablar, shu bilan birga yosh avlodni jismonan barkamol inson qilib tarbiyalashning ahamiyatining ortishini amalga oshirish.

Tadqiqot ishida ta’lim muassasalarida jismoniy harakat malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish tadbirlari hisoblangan jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya darslari, sport to‘garaklaridagi mashg’ulotlar hamda jismoniy mashq bilan mustaqil shug’ullanish yordamida harakatlarga o‘rgatish masalalarini maqsada belgilangan.

Usullari. Maqola mavzusi bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlili qilish, ilg’or tajribalarni o‘rganish, tajribiy mashg’ulotlarni tashkil etish, pedagogik kuzatish, jismoniy rivojlanishni amaliy nazorat o‘tkazish va ularni natijalarini matematik statistik tahlil etish uslublaridan keng foydalanilgan.

Natijalari. Kun tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlari - o‘quvchi va talabalarni sog’lomlashtirish va jismoniy rivojlantirish jarayoni uzluksizligini ta’minlash maqsadida o‘quv yurtlarida o‘quvchi va talabalar kun tartibida jismoniy tarbiya tadbirlari belgilanadi va amalga oshiriladi. Kun tartibidagi tadbirlar mazmuni
Jismoniy tarbiya dasturi asosida tuziladi va rejalashtiriladi. Jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda jismoniy madaniyat jamoasi tashkilotchilik va rahbarlik vazifasini boshqaradi.

Xulosa: Ta’lim muassasalari o‘quvchilarini jismoniy harakat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishning bosqichlari va ularga qo‘yiladigan talablarini to‘g’ri tashkil etish, harakat malaka va ko‘nikmalarini samarali shakllantirish jarayonlari tahlil etish, jismoniy harakatlarga dastlabki bosqichlarini mukammal o‘rgatish hamda takomillashtirish bosqichlarini to‘g’ri tashkil etish, jismoniy mashqlar va boshqa texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollar, jihoz va asboblardan samarali foydalanish jarayonlari o‘rganiladi. Basketbol sport turi bilan shug’ullanuvchi o‘quvchilarni mashg’ulot jarayonlarida o‘yin texnikasi va taktikasi bilan bog’liq harakat malakalari o‘rganilib tahlil qilindi. Nazorat me’yorlari natijalariga muvofiq bajariladigan jismoniy mashqlar va jismoniy yuklamalar hajmi, rejasi va tarkibi ishlab chiqildi va tavsif etildi. Qilingan ishlar adabiyotlar taxlili o‘rganilgan materiallar yuqoridagi fikr muloxazalar quyidagicha xulosa qilish imkonini beradi.

1. Harakat malaka va ko‘nikmalarni ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida tashkil etish, shakllantirish bilan bog’liq ishlarni ochib berish ishlari to’lik o‘rganilmaganligi bilan bog’liq ishlar borligi kuzatildi.
2. Ish jarayonida olib borilgan tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya bilan shug’ullanayotgan va sport turlari murabbiylari uchun harakatlarga o‘rgatish malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish borasida yetarli ish olib borilganligini etirof etish ham o‘rinli deb xisoblanadi.Jismoniy tarbiyaning kun tartibidagi tadbirlari o‘quvchi va talabalarni jismoniy rivojlanishga sog’lig’ini mustahkamlashga va chiniqtirishga aqliy qobiliyatlarni oshirishga, tartib intizomni mustaxkamlashni amalga oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Sport mashg’ulot nazariy asoslari R.S.Salomov. Toshkent, 2005.
2. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O.V. Goncharova. Toshkent. 2005.
3. Uzluksiz ta’limda ommaviy sport-sog’lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. Axmatov M.S. Toshkent. 2005.
4. Salomov R.S. Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. O’quv qo’llanma. 2002y
5. Kushbaxtiev I.A. "Valeologiya asoslari", Darslik. 2001y.

IMPROVING PRONUNCIATION ON SECOND LANGUAGE LEARNERS THROUGH INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Mo’minova Muslimaxon Muxiddin qizi
English teacher Andijan faculty
TSEU, Uzbekistan
moosleema@mail.ru

Annotation: *Pronunciation is one of the main challenges for English language learners in their learning. “Pronunciation is the main aspect which makes languages different all over the world” (Boyer, 2001, p. 14).*

Keywords: *pronunciation, innovative technologies, misunderstanding, fluency, accuracy.*